



Received: November 27, 2024
Accepted: December 23, 2024
Available online: December 25, 2024

Otabek Yusupov

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Dusmurod Djurayev

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Nilufar Isakulova

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

FINLANDIYA VA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMLARI: QIYOSIY TAHLIL VA IMKONIYATLAR

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotdan ko'zlangan maqsad – Finlandiya va O'zbekiston ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili va imkoniyatlarini o'rganish. Tadqiqotning vazifalari – jahon tendensiyalari bilan ta'lim landshaftining o'zaro bog'liq holda rivojlanishini aniqlash; Finlandiya ta'limidagi tajribalardan foydalanish; O'zbekiston va Finlandiya ta'lim tizimini qiyoslash; O'zbekiston va Finlandiyada o'qituvchilar tayyorlash tizimini tahlil etish; Finlandiya ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik ta'minotini o'rganish; Finlandiya ta'limidagi so'rovnomaga asoslangan, natijaga yo'naltirilgan, o'yin texnologiyalari, loyihalarga yo'naltirilgan o'qitish metodikalarini amaliyotga joriy etishdan iborat.

O'zDJTU izlanuvchilari o'rtasida Google platformasida so'rovnomaga asoslangan mahorat darslari axborot tizimlaridan foydalanish yo'llari bo'yicha eksperiment tadqiqot o'tkazildi. Axborot tizimlaridan foydalanishning o'ziga xos

Otabek Yusupov

Associate Professor, Doctor of Philosophy in
Philological Sciences (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: otabeksam@gmail.com
ORCID iD: 0000-0002-8755-8220

Dusmurod Djurayev

Professor, Doctor of Sciences in Pedagogy (DSc)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: d.djuraev@uzswlu.uz
ORCID iD: 0000-0001-7142-2516

Nilufar Isakulova

Professor, Doctor of Sciences in Pedagogy (DSc)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: n.isakulova@uzswlu.uz
ORCID iD: 0009-0009-1716-2384

EDUCATION SYSTEMS OF FINLAND AND UZBEKISTAN: COMPARATIVE ANALYSIS AND OPPORTUNITIES

ABSTRACT

The primary objective of this research is to conduct a comparative analysis of the education systems of Finland and Uzbekistan, exploring potential opportunities. The research aims to: examine the development of the interconnection between global trends and the educational landscape; utilize experiences from Finnish education; compare the education systems of Uzbekistan and Finland; analyze the teacher training systems in both countries; investigate the material and technical support of Finnish educational institutions; and implement survey-based, result-oriented, game technologies, and project-oriented teaching methods from Finnish education into practice.

An experimental study among UzSWLU researchers utilized a Google platform-based survey master class on information systems methods. The survey examined information systems and organizational resources (human,

xususiyatlaridan tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida axborotni saqlash, qidirish, qayta ishlash uchun mo'ljallangan, axborotni ta'minlovchi va tarqatuvchi hamda tegishli tashkiliy resurslar (inson, texnik, moliyaviy va boshqalar) tizimi bo'yicha so'rovnomaga asoslangan tadqiqot o'tkazildi. Sifat ko'rsatkichi sifatida InLibrary, Science Web, Sci-Hub, researchrabbitapp, mybib.com, Litmaps, Unilibrary, Slib.uz kabi axborot tizimlaridan master klass davomida amaliy metod loyihalashtirilib foydalanildi. Ikkinchi ko'rsatkich – miqdor ko'rsatkichi esa Crossref – DOI, Karl Malamud, Scimago reytingi, OpenCitations kabi axborot tizimlaridan mustaqil foydalanishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, har bir ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni loyihalashtirish, talabalarning mavzuga oid qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qituvchining o'qitish metodikasini takomillashtirishda so'rovnomaga asoslangan tadqiqotdan foydalaniladi.

Finlandiyada ta'lim jarayonini tashkil etish va o'quv dasturlarini ishlab chiqishning markazlashtirilgan tizimi mavjud emasligi, milliy miqyosda qo'llash uchun faqatgina tayanch o'quv dasturi ishlab chiqilganligi, mahalliy ta'lim tashkilotlariga ta'lim jarayonini mahalliy shart-sharoitlarga muvofiqlashtirgan holda yo'lga qo'yish uchun erkinlik berilganligi, o'qituvchilar mustaqilligi, o'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish, jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish, butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash kabi tajribalardan O'zbekistonda ta'lim oluvchilar uchun sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, ularni jamiyatning faol fuqarolari sifatida voyaga yetkazish va mustaqil hayotga tayyorlash orqali ta'lim sifatining oshirilishiga ta'sir ko'rsatadi, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich maktab, yuqori maktab, gimnaziya, pedagoglarning malaka oshirishi, maktabda o'qishning davomiyligi, o'qitish metodikasi, litsey, kollej, yo'nalishlar integratsiyasi, amaliyot.

KIRISH

Ta'limda ta'lim islohotlari va o'quv jarayoni ishtirokchilarining takliflari orqali innovatsiyalar faol ishtirok etmoqda. Jahon tendensiyalarini tushunish va ularning

technical, financial, etc.) for storing, searching, and processing information during research. Practical methods from information systems like InLibrary, Science Web, Sci-Hub, researchrabbitapp, mybib.com, Litmaps, Unilibrary, and Slib.uz were designed and implemented as quality indicators. Quantitative indicators included independent use of systems like Crossref – DOI, Karl Malamud, Scimago rating, and OpenCitations.

The research findings indicate that survey-based research is employed in designing each lecture, seminar, and practical session, taking into account students' interests and needs in the topic while enhancing the teacher's pedagogical methodology.

The absence of a centralized system for organizing the educational process and developing curricula in Finland, the development of only a basic curriculum for national application, the autonomy granted to local educational institutions to align the educational process with local conditions, teacher autonomy, providing students with knowledge and skills necessary for life, promoting development and equality in society, and ensuring equality in education throughout the country – these experiences suggest that they influence the improvement of education quality in Uzbekistan through ensuring access to quality educational services for learners, fostering their development as active citizens of society, and preparing them for independent life.

Key words: primary school, upper school, gymnasium, teacher professional development, school duration, teaching methodology, lyceum, college, integration of directions, practice.

ta'lim landshafti bilan o'zaro bog'liqligi rivojlanish va ta'sir doiralarini aniqlashga imkon beradi. Xususan, Finlandiya ta'limi tajribalarida quyidagi ilmiy kontekstlarni belgiladik:

- O'zbekiston va Finlandiya ta'lim tizimi;
- O'zbekiston va Finlandiya o'qituvchilarni tayyorlash tizimi;
- Finlandiya ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik ta'minoti;
- so'rovnomaga asoslangan tadqiqotni amaliyotga joriy etish.

O'zbekiston va Finlandiya ta'lim tizimi xususiyatlarini X.Rabbanaqulov umumiy holatda tahlil etilgan. Uning tadqiqotida O'zbekiston OTMLari miqdor ko'rsatkichlari, Finlandiya ta'limi uchta asosiy maqsadlari (o'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish, jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish, butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash), Finlandiya ta'lim tizimi ikki bosqichli ma'muriy tuzilishi, Finlandiya ta'lim tizimi 7 ta tamoyillari o'rganilgan [Rabbanaqulov, 2022; 20]. Finlandiya tajribasini ta'lim tizimiga kirib kelishi bo'yicha G.U. Kurbonova, M.Abduhamidova, F.Ravshanovalar o'z yondashuvlarini taklif qilishgan [Karbonova va boshq., 2023; 157]. Dunyo mamlakatlarida amaldagi asosiy e'tiborning ta'lim tizimiga qaratilishi, inson kapitalining ahamiyati turli xil yondashuvlar asosida baholanishi, iqtisodiy nuqtayi nazardan esa bu ta'lim olgan kishilarning daromadi darajasiga ko'ra aniqlanishi, har bir qo'shimcha ta'lim yili inson daromadini o'rtacha 10 foizga oshirishi kabi ma'lumotlar inson kapitalini shakllantirishda muhimligini G.Erkayeva tahlil qilgan. Shuningdek, Xitoy, Finlandiya va Singapur ta'limlari qiyoslangan [Erkayeva, 2023; 325]. O. Qo'ysinov tomonidan Finlandiya maktablarida "Asosiy ta'lim to'g'risida"gi Qonun va hukumat qarorlariga muvofiq o'quv jarayoni uchun majburiy o'quv dasturlari ishlab chiqilishi, Finlandiyada O'zbekistondagi tartibdan farqli ravishda asosiy tayanch o'quv reja va dastur asosida mahalliy o'quv dasturlari ishlab chiqib, amaliyotga joriy etilishi, maktab faoliyatining asosiy o'quv mazmunini mahalliy o'quv dasturi belgilab berishi strategik yo'nalish hisoblanishi o'z tadqiqotlarida ta'kidlangan. Dars mashg'ulotlari predmetli yoki integral olib borilishiga misol sifatida bir mavzu ma'lum vaqt (soat, kun, hafta) davomida bir nechta fan orqali o'qitilishi o'quv dasturini tayyorlashda keltirilgan [Qo'ysinov, 2024]. PISA tadqiqotidagi barcha yo'nalishlarda fin o'quvchilari savodxonlik va ta'lim tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishgan bo'lib, 2000-yilda PISA dasturi tashkil etilgandan buyon Finlandiya unda muntazam qatnashib kelishi va fin ta'lim tizimi erishgan natijalari bilan dunyodagi ko'plab mamlakatlarining e'tiborini o'ziga jalb qilishi Sh.J. Xashimov tadqiqotida e'tiborga olingan [Xashimov, 2024; 238]. Shuningdek, Finlandiyada ham maktab haqidagi munozaralar PISA natijalari e'lon qilingandan so'ng qayta boshlanib, iqtidorli talabalarga yordam berish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalaridagi nuqsonlar sababli ixtisoslashtirilgan maktablarni ochish, alohida maktablar o'rtasida akademik ko'rsatkichlarda farqlar, sinfdagi o'quvchilar sonining oshishi, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida akademik ko'rsatkichlarda farqlar, kelgusi yillarda maktabda ta'lim va tarbiya strategiyalarini ishlab chiqish va qo'llash kabi muammolar tadqiqotlarda qayd etildi [Jauhiainen, 2004; von Lehn, 2003; Pulkkinen, 2005; Stavruk, 2009; Shirshova,

2014; Orlova & Pechinkina, 2015].

Innovatsiyalar sohasidagi zamonaviy tadqiqotda Finlandiya ta'lim muhitining texnologik tezaurusi ikkita eng ustuvor tematik modul atrofida joylashgan. Birinchi modulda mahalliy pedagogik tashabbuslarga asoslangan tadqiqotlar, an'analar, uslubiy yondashuvlar asosida texnologiyaga yo'naltirilgan volumetrik klasterlar hosil qiladi. Finlandiya ilmiy-tadqiqot amaliyotlarining ikkinchi modulida Yevropa Ittifoqi hamjamiyatidagi global maqsadlar bilan ta'lim belgilanadi [Vankhemping i dr., 2018].

O'z navbatida, adabiyotlarni o'rganish natijasida aniqlangan muammolar, o'rganilmagan muammolar va bo'shliqlar tavsifini quyidagicha aniqladik:

- O'zbekiston OTMlarining miqdor ko'rsatkichlari, Finlandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi, ikki bosqichli ma'muriy tuzilishi, 7 tamoyilining O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etish yo'llari ko'rsatilmagan;

- Finlandiya tajribasini ta'lim tizimiga kirib kelishi bo'yicha maktablarda bir qator ishlar olib borilayapti, ammo Finlandiya ta'limidagi o'qitish metodlari yetarli darajada joriy etilmagan;

- Xitoy, Finlandiya va Singapur ta'limlari qiyoslangan bo'lib ta'limning qaysi sohasida qo'llanilishi e'tiborga olinmagan;

- ta'lim jarayonidagi tajriba va dars mashg'ulotlarining predmetli hamda integral shaklda olib borilishi o'rganib kelingan bo'lib, integrativ aloqadorlik usullari texnika, tibbiyot, tabiiy va aniq fanlar yo'nalishlarida samarali qo'llanilmoqda, biroq gumanitar ta'lim yo'nalishida fanlararo integrativ aloqadorlikni rivojlantirish va natijadorlikka erishish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilmagan;

- PISA dasturida Finlandiya unda muntazam qatnashib o'rin olishi tahlil etilgan, O'zbekistonda PISA xalqaro baholash dasturlarida ishtiroki ta'minlangan, ammo ta'lim oluvchilarning yuqori natijalarga erisha olmaslik muammolari o'rganilmagan.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida aniqlangan xalqaro tajribalarni o'rganish, ularni amaliyotda sinovdan o'tkazish va joriy etish jarayonidagi muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim sifatini oshirishda barcha ishtirokchilar o'z vazifalariga yuqori mas'uliyat bilan yondashishlari zarur deb hisoblaymiz.

Ta'limda V.G. Svehkaryov, R.S. Kozlov, K.I. Ashxamaxov va T.A. Ivashenkolar fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishdagi xalqaro tajribalarni joriy etishni ta'kidlashadilar [Svehkarov i dr., 2017; 75]. Madaniy xilma-xillik, til tajribasi, xalqaro aloqalar, kasbiy malakalar, global istiqbol, karyera imkoniyatlari, shaxsiy rivojlanish uchun ta'lim tizimiga xalqaro tajribalarni joriy etishni taqozo etadi. Ayniqsa, Finlandiya ta'lim tizimida fanlararo yondashuv qo'llanilib, bunda an'anaviy fan chegaralari olib tashlangan va alohida fanlar o'rniga umumiy mavzular hamda yo'nalishlar asosida integrativ o'qitish amalga oshiriladi. Masalan, "Mening shahrim" mavzusini chet tili geografiya, tarix va ushbu mamlakat adabiyoti fanlari aloqadorlikda o'qitish mumkin [Gracheva, 2016; 785].

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim tizimi quyidagilarga javob berishi lozimligi ta'kidlangan:

"davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalari va o'quv

dasturlarini;

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini;

ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni [O'RQ-637-son, 2020].

TADQIQOT METODLARI


Finlandiya ta'limidagi tajribalardan quyadagilarni o'rgandik:

- ta'lim tizimi;
- o'qituvchilarni tayyorlash tizimi;
- ta'lim tashkilotlari moddiy-texnik ta'minoti;
- so'rovnomaga asoslangan tadqiqot.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida so'rovnomaga asoslangan tadqiqotdan foydalandik. Mazkur eksperiment ishida axborot tizimlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari 71 nafar O'zDJTU izlanuvchilari o'rtasida Google platformasida so'rovnomaga asoslangan master klass o'tkazildi. Eksperimentning birinchi bosqichida sifat ko'rsatkichi sifatida InLibrary, Science Web, Sci-Hub, researchrabbittapp, mybib.com, Litmaps, Unilibrary, Slib.uz kabi axborot tizimlaridan master klass davomida amaliy metod loyihalashtirilib foydalanildi.



InLibrary – Rossiya ilmiy elektron kutubxonasi bo'lib, Rossiya ilmiy iqtibos indeksi (RINS) bilan birlashtirilgan, 2023-yil oxiridan boshlab eLIBRARY.RU ma'lumotlar bazasida 50 milliondan ortiq ilmiy nashrlar mavjud, eLIBRARY.RU va Rossiya ilmiy iqtiboslar indeksi (RIII) (РИИЦ – Российский индекс научного цитирования) “ilmiy elektron kutubxona” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Onlayn so'rovnomamizda inLibrary ilmiy elektron kutubxonasiga izlanuvchilarning 28,2% a'zo bo'lgan 71,8% esa a'zo bo'lmaganligi aniqlandi (1-rasmga qarang):

1-rasm. Izlanuvchilarning inLibrary ilmiy elektron kutubxonasiga a'zoligi natijalari





Scienceweb – O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar milliy bazasidan izlanuvchilarning 53,5% xabardor va 46,5% xabardor emasligi hamda mazkur milliy platformadan foydalanishni 60,6% izlanuvchilarning bilmasligi aniqlandi (2-rasmga qarang):

2-rasm. Izlanuvchilarning Scienceweb milliy bazadan foydalanish natijalari




Slib.uz va Unilibary axborot tizimi ishlashi hamda mazkur tizimlarda ilmiy nashrlarni nashr etish masalalari ham quyidagi 3-rasmda aniqlandi (3-rasmga qarang):

3-rasm. Izlanuvchilarning Slib.uz va Unilibrary axborot tizimidan foydalanish natijalari



Izlanuvchilarning Sci-Hub, researchrabitapp, mybib.com, Litmaps kabi axborot tizimlardagi ilmiy nashrlardan o‘z tadqiqotlarida foydalanishi ham aniqlandi. Izlanuvchilarning researchrabitapp axborot tizimidan 60,6%i, mybib.com axborot tizimidan 35,2%i, Litmaps axborot tizimidan 14,1%i o‘z tadqiqotlarida foydalanishi hamda Sci-Hub loyihasidan esa 87,3% tanishishni xohlashi va 12,7 tanishishni xohlamasligi aniqlandi (4-rasmga qarang):

4-rasm. Izlanuvchilarning Sci-Hub, researchrabbittapp, mybib.com, Litmaps kabi axborot tizimlardan foydalanish natijalari



Ikkinchi ko'rsatkich – miqdor ko'rsatkichi esa Crossref – DOI, Karl Malamud, Scimago reytingi, OpenCitations kabi axborot tizimlaridan mustaqil foydalanishga xizmat qildi.

Ta'lim tizimiga so'rovnomaga asoslangan tadqiqotdan foydalanishni amalda ko'rib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, mazkur tadqiqot asosida ta'lim tizimidagi o'qitilayotgan har bir fanning barcha mavzulari loyihalashtirilsa, ta'lim oluvchilar qiziqish va ehtiyojlari asosida darslarni loyihalashtirish imkoni yaratiladi.


Uch yilda bir marta Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan o'tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarda fin maktabi o'quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Shuningdek, dunyoda eng ko'p kitobxon o'quvchi bolalar ham fin bolalaridir. Bundan tashqari, finlandiyalik maktab o'quvchilari dunyoda ikkinchi

o‘rinni tabiiy fanlar, beshinchi o‘rinni matematika bo‘yicha egallashadi. Biroq, ajablanarli tomoni shundaki, dunyo miqyosida yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgan fin maktab o‘quvchilari darslarga u qadar ko‘p vaqt ajratishmaydi [“O‘quvchi va o‘qituvchi orzusi”, 2018].

Finlandiya ta‘limining asosiy maqsadi – barcha bolalar uchun ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar sifatli ta‘lim xizmatlaridan foydalanish, jamiyatning faol fuqarolari sifatida mustaqil hayotga tayyorlashdan iborat [Saidrasulova, 2022].


O‘zbekiston va Finlandiyada ta‘lim tizimida qiyosiy tahlilni amalga oshirish xorijiy tajribalarni ommalashtirish inkonini beradi. O‘zbekiston ta‘lim tizimini quyidagilarda ko‘rish mumkin [O‘RQ-637-son, 2020] (5-rasmga qarang):

5-rasm. O‘zbekiston ta‘lim tizimi



“Finlandiya asosiy ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunida (1998-yil) o‘quvchilarga hayotda zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni berish, jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ‘ib qilish hamda butun mamlakat bo‘ylab ta‘lim sohasida tenglikni ta‘minlash kabi Finlandiya ta‘limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan. Finlyandiya ta‘lim tizimi va jamiyati o‘qituvchilarning malakasiga tayanadi. Finlyandiya ta‘limini baholash markazi ta‘limdagi baholashni butun mamlakat bo‘ylab olib boradi. Baholashlarning asosiy maqsadi ta‘lim sohasidagi manfaatdor tomonlarni tegishli fikr-mulohazalar bilan ta‘minlashdir va ular o‘qituvchilarga tekshiruv tashriflarini o‘z ichiga olmaydi [Daminov & Qosimova, 2020]. Finlandiya ta‘lim tizimi quyidagi rasmda o‘z ifodasini topgan (6-rasmga qarang):

EDUCATION SYSTEM IN FINLAND



NATIJARLAR

Ta'limda uzoq muddatli ta'lim siyosati barcha uchun teng sharoitlar, ishonch, madaniyat va mustaqil ta'lim olishga urg'u beriladi. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi yuqori darajadagi hamkorlik ta'limining uzluksiz ishlashiga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi [O'RQ-637-son, 2020]. O'zbekiston va Finlandiyada maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlarining quyidagi turlari mavjud (1-jadvalga qarang):

1-jadval. O'zbekiston va Finlandiyada maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlari

O'zbekiston	Finlandiya
umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari	davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari
ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari	nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari
inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotlari	inklyuziv guruhlari mavjud MTT
qo'shma tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari	
reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari	

Turli mamlakatlarda maktabgacha ta'limni tashkil etish usullari farq qilinishi sababli maktabgacha ta'lim sohasida maktab tipidagi model va shimoliy mamlakatlarda qo'llaniladigan ta'lim modeli kabi ikki xil modelni ajratish mumkin. Masalan, Fransiyada uch yoshda maktab tipidagi maktabgacha ta'lim oladi (*école maternelle*). Dastlabki akademik ko'nikmalar va bilimlarni o'zlashtirish mazkur modelda asosiy o'rinni egallaydi. EduCare modelida erta bolalik ta'limi ta'lim-tarbiya, g'amxo'rlikni yagona, to'liq kunlik konsepsiyaga birlashtiradi, bunda ta'limni bola parvarishidan ajratib bo'lmaydi [Eriksson, 2021].

O'zbekiston va Finlandiyada maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlari faoliyati pedagog-xodimlar, mashg'ulotlar, maktabga tayyorlov guruhlari, MTT turlari hamda bolalar ta'minoti uchun to'lovlar asosida tahlil etildi (2-jadvalga qarang):

2-jadval. O'zbekiston va Finlandiyada maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlari faoliyati

MTT faoliyati	O'zbekiston	Finlandiya
<i>pedagog-xodimlar</i>	uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalar guruhida – ko'pi bilan 30 nafar bolaga 1 nafar pedagog va enaga	3 yoshgacha bo'lgan har 4 nafar bolaga hamda 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan har 7 nafar bolaga 1 nafar tarbiyachi yoki o'qituvchi
<i>mashg'ulotlar</i>	“Ilk qadam” davlat o'quv dasturi, variativ dasturlar	ota-onalarga 1 hafta oldin bolalar qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi hamda qanday ovqatlar iste'mol qilishi to'g'risida ma'lumot beriladi; har bir bolaning tokchasida ushbu axborotlar yozilgan ma'lumotnoma 1 hafta oldin ilib qo'yiladi
<i>maktabga tayyorlov guruhlari</i>	maktabga tayyorlov guruhlari MTT, MT tashkil etiladi	tayyorgarlik guruhi (6 yoshdan 7 yoshgacha), ko'pincha bolalar bog'chasida tashkil etiladi
<i>bolalar sog'lig'i</i>	hamshira, shifokor, logoped	hamshira va shifokorlar yo'q, agar bolalarning sog'lig'ida o'zgarish bo'lsa, ota-onalarga xabar beriladi; farzandlarining sog'lig'i yomonlashgan hollarda ota-onalarning biriga farzandiga g'amxo'rlik qilishi uchun ishdan ruxsat beriladi
<i>MTT turlari</i>	davlat, nodavlat MTT	davlat, nodavlat MTT

<i>bolalar ta'minoti uchun to'lovlar</i>	maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'lovi undirilmaydigan bolalarning rivojlanishidagi jismoniy yoki psixik nuqsonlar	ota-onasi o'rtacha oylik ish haqidani ortiq maosh olsagina bog'cha uchun pul to'laydi, qolganlar uchun esa bog'cha bepul
------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Yaqin kelajakdagi Finlandiya umumta'lim maktabi living lab (School's Living Laboratory) tizimi bo'yicha ish olib boradi, bunda ta'lim tashkilotlarining korxonalar, kompaniyalar, universitetlar bilan o'zaro ta'siri asosida o'quv faoliyati va amaliyoti tashkil etishni ta'minlaydi ["Kak podgotovit' uchiteley", n.d.]. O'zbekiston va Finlandiyada umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarining quyidagi turlari mavjud (3-jadvalga qarang):

3-jadval. O'zbekiston va Finlandiyada umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari

O'zbekiston	Finlandiya
boshlang'ich maktab (o'qitish muddati 4 yil: I–IV sinflar)	boshlang'ich maktab (I–VI sinflar)
umumiy o'rta ta'lim maktabi (o'qitish muddati 11 yil: I–XI sinflar)	yuqori maktab (VII–X sinflar)
ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab (o'qitish muddati 7 yil: V–XI sinflar)	gimnaziya (XI–XII sinflar)
ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat (o'qitish muddati 5 yil: VII–XI sinflar)	
ijod maktabi (o'qitish muddati 5 yil: VII–XI sinflar)	
Prezident maktabi (o'qitish muddati 7 yil: V–XI sinflar)	
olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati (o'qitish muddati 7 yil: V–XI sinflar) [O'RQ-595-son, 2019]	

Finlandiyaning Valamis ta'lim kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmada ushbu texnikani qo'llashda alohida qadamlarni aniqlaydilar:

- haqiqiy hayotga taalluqli va ularning shaxsiy manfaatlarini aks ettiruvchi savollarni ta'lim oluvchilar berishadi;

- mavzuni turli nuqtayi nazardan o'rganib, o'z savollariga javob topish uchun tadqiqotni ta'lim oluvchilar olib boradilar;

- o'qituvchilar muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rganishda o'quvchilarga yordam berishadi ["Kak podgotovit' uchiteley", n.d.].

O'z qarorlarini o'zlari tanlagan formatda ta'lim oluvchilar taqdim etadilar. O'zbekiston va Finlandiyada umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari faoliyati pedagoglar, darslar, MT turlari, o'qitish metodikasi, pedagoglarning malaka oshirishi, maktab davomiyligi, ta'lim oluvchilar soni hamda o'quvchilar nazorati asosida tahlil etildi (4-jadvalga qarang):

4-jadval. O'zbekiston va Finlandiyada umumiy o'rta va

o'rtta maxsus ta'lim tashkilotlari faoliyati

Maktab faoliyati	O'zbekiston	Finlandiya
<i>pedagoglar</i>	boshlang'ich sinf o'qituvchisi; fan o'qituvchilari; tillar, musiqa, jismoniy tarbiya fanlari o'qituvchilari; har bir sinfga sinf rahbari biriktirilgan	1 nafar asosiy o'qituvchi; 2 nafar yordamchi o'qituvchi; tillar, musiqa, jismoniy tarbiya fanlarini o'qitish maxsus fan o'qituvchilari; har bir sinfga kurator biriktirilgan
<i>daralar</i>	DTS, o'quv reja, Milliy dasturlar, taqvim-mavzuli rejalar; o'quv fanlari; darsdan tashqari mashg'ulotlarni tanlash imkoniyati	noyabr-dekabr oylarida ota-onalar bilan o'quvchilar qiziqishlari kelishiladi; natijaga yo'naltirilgan ta'lim; fanlararo integratsiya (ingliz tili+san'at, ingliz tili+matematika) fakultativ kurslarini tanlash imkoniyati
<i>o'quvchilar sog'lig'i</i>	hamshira, shifokor, logoped	hamshira, shifokor, logoped
<i>MT turlari</i>	davlat, nodavlat maktablar	davlat maktablari
<i>o'qitish metodikasi</i>	passiv, faol, imterfaol	kichik guruhlarda ishlash, step by step
<i>pedagoglarning malaka oshirishi</i>	uch yilda 1 oy	1 yilda 5 kun (o'zi uchun malaka oshiradi)
<i>maktab davomiyligi</i>	9 oy (sentabr-may oylari)	10 oy (avgust-may oylari)
<i>ta'lim oluvchilar soni</i>	35 nafardan oshmasligi kerak	20 nafar
<i>o'quvchilar nazorati</i>	4 ta chorak va yil yakunlari bo'yicha (Kundalik.com)	baholanmaydi, har oy bolalar test topshirishadi; past o'zlashtirgan o'quvchilar bilan ishlanadi (Vilma sayti)

“Elita” yoki “oddiy/zaiif” maktablar Finlandiyada mavjud emas. Mamlakatda eng yirik maktabda 960 nafar o'quvchi bor. Eng kichik maktabda 11 nafar o'quvchi o'qiydi. Har bir maktab bir xil jihoz, imkoniyat va mutanosib moliyalashtirishga ega. Mamlakatda 10 balli baholash tizimiga amal qilinadi, ammo 7-sinfgacha o'rtacha, qoniqarli, yaxshi, mukammal kabi og'zaki baholash qo'llaniladi. 1-sinfdan 3-sinfgacha turli variantlarda belgilar mavjud emas. “Wilma” davlat elektron tizimiga barcha maktablar ulangan. Bunda ota-onalar shaxsiy kirish kodi orqali elektron maktab kundaligiga kirishadi. O'qituvchilar baholashadi, yo'llanmalarni qayd etishadi, bolaning maktabdagi hayoti to'g'risida ma'lumot berishadi; ota-onalar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni psixolog, ijtimoiy ishchi, “kelajak o'qituvchisi”, feldsher ham qoldiradilar [“V Finlyandii gotoviyat”, n.d.]. Ta'lim jarayonining loyihasi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanadi, ular ta'lim sherikligi, tenglik, muloqot, har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olish kabilarni o'z ichiga oladi [Dubakov i dr., 2021]. O'zbekiston va Finlandiyada professional ta'lim tashkilotlarining quyidagi turlari mavjud (5-jadvalga qarang):

5-jadval. O'zbekiston va Finlandiyada porofessional ta'lim tashkilotlari

O'zbekiston	Finlandiya
kasb-hunar maktablari (2 yillik, kunduzgi)	litseylar kollejar

kollejlarda (2 yillik, kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-shartnoma asosida)	litsey + kollej
---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------

Ta'limning amaliy yo'nalishi – talabalarni hayotga tayyorlashda ustuvor vazifa hisoblanishini A.V. Dubakov, Y.V. Olar, Y.V. Kuzmenkina tadqiqotlarida o'rganishgan. Shu sababli, darslar amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan [Dubakov i dr., 2021].

Finlandiyada kasbiy malakaga ega bo'lishning amaliyot, ish tajribasi va kollej ta'limi kabi yo'llari mavjud. Barcha talabalar tanlagan yo'lidan qat'i nazar yakuniy imtihondan o'tadilar (*näyttötutkinto*).

Ixtiyoriy o'rta ta'limning bir qismi kollejlarda (*ammattiopisto*) hisoblanadi va asosan umumta'lim maktabining 9-sinfini tugatgan o'quvchilar uchun tashkil etilgan. Bu yerda uch yil o'qitishning besh oyi amaliyot uchun ajratilgan.

Gumanitar ta'lim va pedagogika, sotsiologiya, biznes va menejment, san'at, texnologiya va transport, tabiiy resurslar va ekologiya, ijtimoiy, jismoniy va ruhiy salomatlik, turizm, iqtisodiyot va mehmondo'stlik kabi 7 ta asosiy yo'nalishlar bo'yicha Finlandiya kollejlari o'qitishni taklif etishadi. O'quv dasturi 4 ta asosiy qismdan iborat:

- ixtisoslashtirilgan kasb-hunar ta'limi (135 kredit);
- umumiy ta'lim fanlari (35 kredit);
- elektivlar (10 kredit);
- qo'shimcha narsalar (dasturga bog'liq) ["Obrazovaniye v Finlyandii", n.d.].

O'zbekiston va Finlandiyada professional ta'lim tashkilotlari faoliyati kichik mutaxassislar, ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot, ishlab chiqarish ustaxonalari hamda hayotda kerak bo'ladigan bilimlar asosida tahlil etildi (6-jadvalga qarang):

6-jadval. O'zbekiston va Finlandiyada umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari faoliyati

O'zbekiston	Finlandiya
kichik mutaxassislar tayyorlanadi	yo'nalishlar integratsiyasida tayyorlanadi
ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot	ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot
ishlab chiqarish ustaxonalari	ishlab chiqarish ustaxonalari
	hayotda kerak bo'ladigan bilimlar o'rganiladi

Finlandiyada ko'p universitetlar mavjud va ular mamlakatning turli qismlarida joylashgan. Tibbiyot, iqtisodiyot, sotsiologiya, huquq, gumanitar va texnik fanlar kabi sohalarida ta'lim yuqori darajada taklif etiladi ["University", 2024]. Finlandiya ta'lim muassasalari "Dunyo uch missiya nigohida" deb nomlangan loyihada quyidagi o'rinlarni egallaydi:

- 2023-yilda 3 ta universitet missiyasi reytingiga 11 ta Finlandiya universiteti kirgan;
- 24-o'rinda Finlandiya 112 ta ishtirokchi davlatlar ichida vakillik darajasi bo'yicha Belgiya va Irlandiya bilan bir qatorda;
- 13-o'rinda Yevropa davlatlari orasida Finlandiya.

Birinchi uchlik o'zgarishsiz qolgan: 1-o'rin – Xelsinki universiteti; 2-o'rin – Aalto universiteti; 3-o'rin – Turku universiteti.

Oliy ta'lim tashkilotlari O'zbekiston va Finlandiyadagi Yuvaskula tashkilotlarining quyidagi turlari mavjud (7-jadvalga qarang):

7-jadval. O'zbekiston va Finlandiyada oliy ta'lim tashkilotlari

O'zbekiston	Finlandiya Yuvaskula OTM
universitet	amaliy fanlar universiteti
akademiya	ilmiy tadqiqotlar instituti
institut	

Finlandiya Ilmiy tadqiqotlar instituti ta'lim muhiti va baholash, oliy ta'limning ijtimoiy muammolari, ish faoliyati va uni boshqarish, ta'lim va barqaror jamiyat kabi yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Ilmiy ish bosqichlari quyidagilardan iborat: ixtisoslik, universitet dasturlari, professorlarga murojaat (1 varaq); ilmiy rahbar; rasmiy ish (aprel, avgust); moddiy qo'llab-quvvatlash (grant, ish, lavozim); ilmiy tadqiqotni boshlash.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tahlil etilganda Finlandiyada uning bir bosqichli ekanligini alohida ta'kidlash lozim (8-jadvalga qarang):

8-jadval. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim

O'zbekiston	Finlandiya
tayanch doktorantura – falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD))	falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD))
doktorantura – fan doktori (Doctor of Science (DSc))	
mustaqil izlanuvchilik – falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Sciences (DSc))	

Oliy ta'limdan keyingi ta'limda Finlandiyada keragidan ortiq PhDlar, sekin harakatlanish, sifat pasayishi xavfi, qariyotgan aholi, siyosiy qanotlar (millatchilik), iqtisodiy muammolar, yangilanmaslik xavfi kabi kamchiliklar mavjud. Xususan, U.Signeus, E.Lennrot, Y.L. Runeberg, Y.V. Snelman, O.Mantere, Y.Engestrem, Y.Xamyalaynen, P.Karonen, O.V. Lindkvist, T.Letonen, Y.Rutti, P.Salberg, T.Yustova kabi bir qator fin olimlari Yevropada ta'limni rivojlantirishdagi zamonaviy paradigmalarning shakllanishiga hissa qo'shishdi. Yevropada ta'lim paradigmalarida pedagogik va zamonaviy dunyoqarashning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Finlandiya xalqaro hamkorlik va ta'lim sohasida tajriba almashish uchun barchaga ochiq hisoblanadi [Bal'chyunene, 2014]. Fin ta'limining asosiy afzalliklarini quyilagilarda ko'rish mumkin (9-jadvalga qarang):

9-jadval. Fin ta'limining asosiy afzalliklari

Afzalliklar	Afzalliklar mazmuni
<i>Maktablar o'rtasidagi tenglik</i>	Agar institutlar davlat turiga kirsa, unda hammasiga bir xilda homiylik qilinadi hamda “boy” va “kambag'al” sinflarga bo'linmaydi. Finlandiyada bir muddatgacha ota-onalarga farzand uchun muassasa tanlashni taqiqlovchi qonun mavjud bo'lib, farzandini eng yaqin yashash joyiga berish kerak bo'ladi. Yaqinda mazkur taqiqlar bekor qilindi, lekin ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini maktabga yaqinlashtirishmoqda, chunki ular qulayroq bo'ladi va ta'lim darajasi shaharning boshqasidan farq qilmaydi. Bu xususiy maktablar yo'qligini anglatmaydi, lekin ular ko'pincha talab qilinmaydi. Ular har qanday ixtisoslikda ongli ravishda tilga olinadigan, lingvistik yoki matematik bo'ladigan bolalar tomonidan talab etiladi.
<i>Talabalar o'rtasidagi tenglik</i>	Fin ta'limidagi boshqaruvda bolalar kuchsiz va zaif, sog'lom va kasalga ajratilmaydi, ular bir sinfda o'qishga ruxsat beriladi. Shuning uchun, odatda, bitta stolda nogironlar aravachasi va nogiron o'smir joylashishi mumkin. Ularning barchasi jamiyatga erkin moslashadi va tengdoshlari bilan muloqotda bo'lib, jamiyatga kiradi. Bu mamlakatda iste'dodli va zaif bolalar o'rtasida farq juda kichik.
<i>Ota-onalar o'rtasidagi tenglik</i>	Barcha ta'lim muassasalarida bola ota-onasining ish joyini aniqlashga imkon beradigan barcha savolnomalar va dasturlar qat'iyon taqiqlanadi. Ushbu qo'llanma oxir-oqibatda, talabaga birinchi navbatda beriladi
<i>Naqd to'lovlarning yo'qligi</i>	Davlat maktabi maktabga avtobusda sayohat qilish uchun hamma narsani beradi. Ota-onalar o'qish joyidan ikki kilometr uzoqlikda yashasa, darsliklar, noutbuklar, tushlik-darslar, maktabdan tashqaridagi tadbirlar, ekskursiya va muzeylar, bolani maktabga va uyga olib keladigan yuklarni moddiy tarafdan qoplamaydi
<i>Maktablar o'rtasidagi tenglik</i>	Agar institutlar davlat turiga kirsa, unda hammasiga bir xilda homiylik qilinadi hamda “boy” va “kambag'al” sinflarga bo'linmaydi. Finlandiyada bir muddatgacha ota-onalarga farzand uchun muassasa tanlashni taqiqlovchi qonun mavjud edi. Uni eng yaqin yashash joyiga berish kerak hisoblanadi. Yaqinda bu taqiqlar bekor qilinib, ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini qulay bo'lgani uchun maktabga yaqinlashtirmoqda. Bu xususiy maktablar yo'qligini anglatmaydi, lekin ular ko'pincha talab qilinmaydi.
<i>Har bir talabaga individual yondashish</i>	Finlandiya o'qituvchilari sinfni bitta organizm sifatida baholaydilar, unda hujayralar kabi har bir o'quvchi bir-biriga o'xshashligini ta'kidlaydi. Aksincha, o'qituvchi har bir o'quvchisi qobiliyatlari asosida tayyorlaydi. O'quvchi o'z bilimiga mos keladigan ko'p bosqichli vazifalarni oladi. Bunga Finlandiya o'qituvchisi darsdan keyin mashg'ulotlarda qo'shimcha tushuntirish olib boradi
<i>Haqiqiy hayotga tatbiq etilishi</i>	Sinflarda muhim hayotiy narsalar o'rgatiladi: bank foizlarini qanday hisoblashi, rezume yoki ish uchun portfelni yaratish, uylar uchun to'lovlarni to'lash yoki hudud uchun rejani yaratish.
<i>O'z-o'zini tarbiyalash va ixtiyoriylik</i>	O'quvchilar bilimlarni olishni xohlash uchun o'z-o'zini tarbiyalaydi, ixtiyoriy ravishda xolis ishlaydi, o'smir uchun kerak bo'lmagan fanlar jadvaldan olinadi.
<i>Maktabda ikkinchi yil bo'lib qolish ham sharmandalik emas</i>	Hech bir ta'lim oluvchi kasb tanlashda shoshilmaydi, qo'shimcha yil esa bilim va darajalarni yaxshilashga yordam beradi.

11 ta Finlandiya universitetining jahon reytingida 8 tasi top 1000 talik ro'yxatda mavjudligini ko'rishimiz mumkin (10-jadvalga qarang):

10-jadval. 11 ta Finlandiya universiteti jahon reytingida

Jahon reytingidagi oʻrni	Finlandiya OTMlari
103	University of Helsinki
181	Aalto University
351–400	University of Turku
451–500	University of Oulu
701–800	Abu Akademi University
	University of Eastern Finland
	University of Jyvaskyla
901–1000	Lappeenranta University of Technology
1101–1200	Tampere University of Technology
1201–1300	University of Lapland
1751–2000	University of Vaasa

MUNOZARA

Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida kadrlarni tayyorlash sohasidagi muammolar tahlil etilgan:

- matematika, fizika, kimyo, informatika, ingliz tili va boshqa chet tillari kabi fanlar boʻyicha pedagog kadrlar yetishmovchiligi kuzatilmoqda;

- OTMlariga qabul qilish jarayoniga uzoq hududlardagi talabalar uchun oʻqishga kirishda imtiyozlarning yoʻqligi sababli togʻ va choʻl hududlaridagi maktablarda oʻqituvchilarga ehtiyoj yuqori darajada qolmoqda;

- umumtaʼlim muassasalari oʻqituvchilarining 14 foizini oʻrta maxsus maʼlumotli mutaxassislar tashkil etmoqda;

- pedagogika yoʻnalishidagi OTMlari oʻquv dasturlariga boʻlajak pedagog uchun mazmuniy yuklama bermaydigan ayrim fanlar kiritilgan;

- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarning mazmunan eskirib qolganligi, shuningdek, pedagogik amaliyotning yuzaki oʻtilishi boʻlajak pedagogning kasbiy sifatlariga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda;

- OTMlari bitiruvchilari umumiy sonining qariyb 25 foizini “Pedagogika” mutaxassisligi bitiruvchilari tashkil etishi va bu mutaxassislik eng ommaviylardan biri boʻlishiga qaramasdan, uning jozibadorligi pastligi sababli pedagogika yoʻnalishidagi OTMlari bitiruvchilarining oʻz kasbi boʻyicha mehnat qilish motivatsiyasi past darajada qolmoqda;

- pedagog kadrlarni ishga qabul qilishda ularning malaka darajasini aniqlash uchun aniq talablarni ishlab chiqish lozim;

- direktor va oʻqituvchilar bilishi va bajarishi kerak boʻlgan aniq belgilangan milliy standartlarning mavjud emasligi, ularning salohiyati oʻsishiga hamda amaldagi muassasalar rahbarlarini tanlash va tayinlash tartibining samarasizligiga olib kelmoqda;

- mavjud malaka oshirish tizimi oʻqituvchilar ehtiyojlariga mos emasligi, malaka oshirish kurslari mazmuni va qoʻllaniladigan usullar eskirganligi, zamonaviy AKTlari vositalarini qoʻllash orqali oʻqituvchilarni masofadan qayta tayyorlash mexanizmi yoʻlga qoʻyilmaganligi oʻqituvchilarning bilim va malakasini tizimli

oshirib borish imkonini bermayapti;

- ko'p yillik mehnat stajiga ega yuqori malakali va tajribali pedagoglar ingliz tili yoki kompyuter savodxonligi bo'yicha yetarli bilimga ega emasligi sababli attestatsiyadan o'ta olmaslik holatlari kuzatilmoqda;

- o'qituvchilar soni quvvatiga nisbatan kam bo'lgan maktablarda kadrlar tarkibi salohiyati pastligi tufayli talab darajasidagi ta'lim sifati ta'minlanmayapti [PF-5712-son, 2019].

O'qituvchilarni tayyorlash ta'lim tizimi muvaffaqiyati asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Fin o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda tadqiqotchi Y.Laukia Finlandiya ta'lim siyosatida professional ta'lim o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash tarixi, zamonaviy talablarga javob berishi, o'qituvchilarni sohaviy tayyorlash tizimi yuzasidan o'z tadqiqotlarini olib borgan [Laukia, 2010].

O'qituvchilik kasbi Finlandiyada eng obro'li va talab qilinadigan kasblardan biri. Shuningdek, ular tanlovda ishtirok etib, pedagogika fakultetlarining 30 foiz bitiruvchilaridan "eng" yaxshi tanlanib, maktab o'qituvchisi bo'lishadi. Ta'lim sohasidagi mutaxassislarning malakalari "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilangan va o'qituvchining toifasiga qarab farqlanadi. Davlatning qat'iy talablari pedagogik ta'lim sifati mezoni yuqori bo'lib qolishining kafolati hisoblanadi (11-jadvalga qarang):

11-jadval. O'zbekiston va Finlandiya o'qituvchilari

O'zbekiston	Finlandiya
maktabgacha ta'lim pedagogi	maktabgacha ta'lim pedagogi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi	boshlang'ich sinf o'qituvchisi
fan o'qituvchilari	fan (asosiy va professional fan) o'qituvchilari
	kasb-hunar maktablari o'qituvchisi
	kattalar uchun kechki maktab o'qituvchisi
maxsus ta'lim o'qituvchilari	maxsus ta'lim o'qituvchilari
	maslahatchi (asosiy fan o'qituvchisi)
sinf rahbari/kurator	kurator (asosiy fan o'qituvchisi)
Oliy ta'lim o'qituvchilari	
professor	lektor (universitet, politex institutlari)
dotsent	
katta o'qituvchi	katta assistent (universitet) ["Kak podgotovit' uchiteley", n.d.]
o'qituvchi	
assistent	

Talaba uchun o'qituvchilik karyerasining birinchi bosqichi 180 ECTS kreditini o'z ichiga olgan bakalavr darajasi. Ikkinchi bosqichi 120 ECTS kreditini olish bo'yicha magistr darajasi. Maktablarda o'qitishni faqat magistr darajasiga ega bo'lganlarga ruxsat beriladi. Ushbu darajani olish quyidagi kurslarni majburiy topshirishni o'z ichiga oladi: kommunikativ kompetensiya (12 kredit), ta'lim texnologiyalari (75 kredit), pedagogika va psixologiya (35 kredit), asosiy fan ixtisosligi (35 kredit), qo'shimcha fan ixtisosligi (35 kredit), tanlov kurslari (5-8 kredit). Talabalar jami 120

ECTS krediti bo‘lgan asosiy fanlar, oraliq va ilg‘or darajadagi kurslarni, shuningdek, qo‘shimcha mutaxassislik (pedagogik qayta tayyorlash) bo‘yicha 60 ECTS krediti bo‘yicha asosiy va oraliq kurslarni tamomlaydilar. Jami 300 ECTS krediti bilan to‘liq darajaga besh yil ichida erishiladi (12-jadvalga qarang):

12-jadval. Fin o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha ECTS kredit ballari

Bosqich	OTM	Kredit
1-bosqich	Bakalavriatura (3 yil)	180 ECTS
2-bosqich	Magistratura (2 yil)	120 ECTS
Jami	5 yil	300 ECTS

Integrativ maktabning afzalliklari shundaki, u zaif o‘quvchilarni rivojlantirish, bozor talablariga moslashuvchanlik, ijtimoiy integratsiya, jamiyatda konsolidatsiyani qo‘llab-quvvatlashga samarali imkoniyat yaratadi. Integrativ yondashuv turli xil o‘quv predmetlariga mos keladigan o‘quv ishlari loyihalashtiriladi [Zagvozdkin, 2006].

Talabalar 3 yillik bakalavr dasturi asosida bolalar bog‘chasi o‘qituvchisi yoki kattalar uchun kechki maktab o‘qituvchisi bo‘lishadi. Ushbu malaka bolalar bog‘chasida ham, kechki maktabda ham ishlash uchun yetarli bo‘lsa-da, aksariyat o‘qituvchilar magistrlik darajasini olish uchun o‘qishni davom ettirishmoqda. Mamlakatda maktabgacha ta‘lim muassasalari tizimi juda rivojlangan: fin o‘quvchilarining aksariyati bolalar bog‘chalari orqali maktabga o‘tadi. Maktabgacha ta‘lim muammolari doimiy ravishda jamoatchilik muhokamasi markazida bo‘lib, uning asosiy savoli: “Qanday qilib bolani bolalar bog‘chasidan maktabga og‘riqsiz o‘tkazish mumkin?”. Bolalar bog‘chasi o‘qituvchilari 1 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan ishlayotganligi sababli, bo‘lajak mutaxassis maktabgacha ta‘lim ixtisosligi bo‘yicha bakalavriaturani tugatishi kerak. Ushbu dastur doirasida o‘rganilgan fanlar maktabgacha ta‘lim muassalarida o‘qitish uchun zarur bo‘lgan kasbiy daraja (malaka)ni ta‘minlaydi. Universitetda asosiy ta‘lim olgan bolalar bog‘chasi o‘qituvchilari aqliy zaif bolalar bilan ishlash uchun maxsus yoki korreksion ta‘lim o‘qituvchisi sifatida qo‘shimcha malakaga ega bo‘lishlari mumkin. Buning uchun ular tegishli ixtisoslashtirilgan o‘quv dasturidan o‘tishlari lozim.

Umuman olganda, boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari dastlabki 6 yil davomida bolalarga majburiy umumiy ta‘limdan dars berishadi. Dastlabki bosqichda ular o‘z sinflarini yoki o‘quv dasturiga kiritilgan barcha fanlar bo‘yicha maktab o‘quvchilari guruhini o‘qitadilar. Tegishli malakaga ega bo‘lishi uchun talabalar pedagogik tayyorgarlik bo‘limida pedagogika fanlari bo‘yicha magistrlik diplomini olishlari lozim. Ushbu yo‘nalishdagi diplom pedagogik o‘quv dasturi va o‘quv rejasida nazarda tutilgan barcha fanlarni umumlashtiradi. Boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari maxsus ta‘limga o‘tkazilgan maktab o‘quvchilari guruhlari bilan korreksion ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlash dasturi bo‘yicha qo‘shimcha ta‘lim olgan taqdiridagina ishlash huquqiga ega. Bolalar bog‘chasi va boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari quyidagicha tayyorlanadi (13-jadvalga qarang):

13-jadval. Bolalar bog‘chasi va boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari

O‘zbekiston	Finlandiya
3 yil bakalavriatura	3 yil bakalavriatura (korreksion ta’lim o‘qituvchisi)
2 yil magistratura	2 yil magistratura
MTT pedagogi	

“Predmet/fan o‘qituvchisi” malakasiga ega o‘qituvchilar majburiy umumiy ta’limning 7-9-bosqichida maktab o‘quvchilari bilan ishlashga tayyorlanadi. Predmet/fan o‘qituvchisi o‘rta maktabning yuqori sinflari, ta’lim darajasiga qarab kasb-hunar maktablari va kattalar maktablarida ta’lim faoliyatini olib boradi.

Finlandiyada maktab ta’limining asosiy nuqtalari sifatida A.Zelenin quyidagilarni ko‘rsatgan:

1. *Vision savollar guruhi (oldindan ko‘rish)*: Kelajakda ta’lim qanday bo‘ladi?; Qanday kompetensiya turlari talab qilinadi?; Amaliy vazifalarning qanday turlari o‘quvchilarni ta’lim olishiga motivatsiya qilishi mumkin?

2. *Action savollar guruhi (faoliyat)*: maktab amaliyoti va har bir darsda qanday o‘zgarishlarni amalga oshirilishi mumkin?

3. *Teacher education savollar guruhi (o‘qituvchilarni tayyorlash)*: kelajakda o‘qituvchilarning qanday ko‘nikmalari, malakalarini rivojlantirish lozim?

4. *Standart savollar guruhi (standart)*: milliy va mahalliy/mintaqaviy o‘quv rejalari o‘qituvchilar va maktab jamoasining ishiga rahbarlik qiladimi? [Zelenin, 2015].

O‘rta maktab o‘qituvchisi malakasini olishning ikki yo‘li mavjud. Talabalarning aksariyati ma’lum bir fan bo‘yicha magistr darajasiga ega bo‘lgan oliy o‘quv yurtini tamomlaydilar va diplom olgandan keyin talabalarning bir qismi ularni pedagogik tayyorgarlik kurslariga qabul qilishni so‘rashadi. Biroq, ko‘pchilik dastlab pedagogik o‘quv dasturiga kirishadi, shu bilan birga, predmet bo‘yicha bilim olishadi. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, pedagogik ta’limni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanlash varianti o‘qituvchi shaxsining rivojlanishiga yanada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki universitetga kirgan talabalar pedagogik kasb olishlarini bilishadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Finlandiyada korreksion ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. Maxsus ta’lim o‘qituvchilar aksariyati 9 yil davomida bolalar va oddiy o‘qituvchi bilan birgalikda ishlaydi. Maxsus ta’lim o‘qituvchilari oddiy boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘qituvchisi bilan alohida yoki bitta sinfdan ishlaydilar. Boshlang‘ich maktab mutaxassislari maktab kengashi tomonidan korreksion ta’limga yuborilgan zaif maktab o‘quvchilarining kichik guruhlarini o‘qitishadi.

Maslahatchi odatda maktab o‘quvchilari bilan 9 yillik majburiy umumiy maktabda ishlaydi, kurator esa asosan o‘rta maktab, kasb-hunar maktablari va politexnika kollejlari ishlaydi. Ushbu mutaxassislar talabalarga o‘quv kursini to‘g‘ri rejalashtirish, keyingi ta’lim to‘g‘risida qaror qabul qilish, asosiy texnologiyalar bilan tanishish va mehnat bozorini o‘rganishga yordam beradi.

Finlandiya maktabini qulaylik zonasi deb hisoblash mumkin. Har bir maktabda

qo‘shimcha o‘quv yordamiga muhtoj bo‘lgan bolalarni o‘qitish bo‘yicha maxsus darslar mavjud. Ba’zi bolalar ushbu sinflarda faqat ba’zi darslarni o‘tkazishadi, so‘ngra boshqa darslar uchun “ona sinfi”ga qaytishadi, ba’zi bolalar doimiy ravishda shu sinfda o‘qishadi. Bundan tashqari, barcha fanlar bo‘yicha yordamga muhtoj bolalardan iborat doimiy maxsus sinflar mavjud. Finlandiyada korreksiyalash-rivojlantirish bo‘yicha ta’lim tizimi har tomonlama taraqqiy etgan. Shunisi e’tiborga loyiqki, maxsus sinflar har doim maxsus tarzda bezatilgan: hamma joyda bolalarda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin bo‘lgan mavzular bo‘yicha qo‘shimcha rangli plakatlar va boshqa ko‘rinishlar (masalan, imzolangan o‘ng va chap qo‘llar, maxsus belgilar bilan alifbo va boshqalar). Ta’lim muassasasining har bir joyidan unumli foydalanishga harakat qilingan. Bir xonadan ham sportzal, ham faollar zali, ham tomoshalar zali sifatida foydalanish imkoniyatlari qilingan.

Finlandiya ta’limi paradigmalar quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- fasilator sifatida o‘qituvchi;
- o‘rganishga yo‘naltirilgan ta’lim;
- ta’lim texnologiyalari;
- ta’lim oluvchi boshqaruvchi sifatida;
- natijaga yo‘naltirilgan ta’lim.

Umuman, Finlandiyada ta’lim jarayonini tashkil etish va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishning markazlashtirilgan tizimi mavjud emas. Milliy miqyosda qo‘llash uchun faqatgina tayanch o‘quv dasturi ishlab chiqiladi. Ta’lim jarayonini mahalliy shart-sharoitlarga muvofiqlashtirgan holda yo‘lga qo‘yish uchun mahalliy ta’lim tashkilotlariga erkinlik beriladi. Mazkur nomarkazlashtirilgan tizim mahalliy darajada ishlab chiqilgan va joriy etilgan o‘quv dasturlariga asoslanadi, bunda o‘quvchilarning individual ehtiyojlari hisobga olinadi [Saidrasulova, 2022].

Finlandiya oliy ta’lim tizimining o‘zi xos xususiyatlari quyidagilardan iborat (7-rasmga qarang):

7-rasm. Finlandiya oliy ta’lim tizimining o‘zi xos xususiyatlari



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Finlandiya ta’lim tizimi tahlillari amaliyotga joriy etish bo‘yicha quyidagi takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi:

■ O‘zbekiston va Finlandiya OTMlarining miqdor ko‘rsatkichlari, O‘zbekiston va Finlandiya ta’limining maqsadi, ma’muriy tuzilishi, ta’lim tizimiga tatbiq etilgan tamoyillaridan ta’lim sifatida unumli foydalanish;

■ Finlandiya va O‘zbekiston ta’limidagi o‘qitish metodlarini yetarli darajada loyihalashtirish;

■ Xitoy, Finlandiya va Singapur kabi xorijiy tajribalarni amaliyotda e’tiborga olish;

■ dars mashg‘ulotlarini natijaga yo‘naltirilgan va so‘rovnomaga asoslangan tadqiqotlar asosida loyihalashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-637-son Qonuni. (2020-yil 23-sentabr). Ta’lim to‘g‘risida. *Lex.uz.* <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-595-son Qonuni. (2019-yil 16-dekabr). Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida. *Lex.uz.* <https://lex.uz/docs/-4646908>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni. (2019-yil 29-aprel). O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. *Lex.uz.* <https://lex.uz/docs/-4312785>.
4. Bal’chyunene, N.I. (2014). Kratkiy obzor rabot uchenykh v oblasti otsenki finskogo obrazovaniya. *Perspektivy nauki*, 2(53), 40–43.
5. Daminov, X., & Qosimova, Z. (2020-yil 16-noyabr). Finlyandiya ta’lim siyosatining muhim tamoyili yoxud Fin maktablarining muvaffaqiyati nimada?. *Uza.uz.* <https://uza.uz/oz/posts/finlyandiya-talim-siyosatining-muhim-tamoyili-yoxud-fin-maktablarining-muvaffaqiyati-nimada-785751>.
6. Dubakov, A.V., Olar’, Yu.V., & Kuz’menkina, Ye.V. (2021). Obrazovaniye v Finlyandii: fenomen uspekha. *Mir nauki. Pedagogika i psixologiya*, 9(2).
7. Eriksson, S. (8 iyulya 2021 goda). Obucheniye, oriyentirovannoye na uchenika: Na osnove finskoy sistemy obrazovaniya. *Forbes Education*. <https://education.forbes.ru/authors/obuchenie-orientirovannoe-na-uchenika>.
8. Erkayeva, G.P. (2023-yil 31-may). Inson kapitalini rivojlantirishning xorijiy tajribalari. “Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami (B. 324–327). Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
9. Gracheva, A.G. (2016). Mezhdistsiplinarnoye obucheniye v finskoy shkole. *Sovremennyye nauchnyye issledovaniya i innovatsii*, 2(58), 785–788.
10. Jauhiainen, K. (2004). Das Lernen lernen in den finnischen “ganzheitlich lernenden Gemeinschaftsschulen”. In Bundesministerium für Bildung und Forschung (Ed.), *Startkonferenz zum Investitionsprogramm Zukunft Bildung und Betreuung: Bildungsreform* (Vol. 5, pp. 137–143). Berlin: Bundesministerium für Bildung und Forschung.
11. Kak podgotovit’ uchiteley v Finlyandii. (n.d.). *Akkreditatsiya v obrazovanii*. https://akvobr.ru/kak_gotovjat_uchitelei_v_finlyandii.html.
12. Kurbonova, G.U., Abduhamidova, M., & Ravshanova, F. (2023). Finlandiya tajribasining ta’lim tizimiga kirib kelishi. *Journal of New Century Innovations*, 25(1), 155–159.
13. Laukia, Ya. (2010). Professional’naya podgotovka prepodavatela v oblasti energetiki. *Obrazovaniye i nauka*, 8, 99–112.
14. Obrazovaniye v Finlyandii. (n.d.). *UniPage.net*. https://www.unipage.net/ru/education_finland.

15. Orlova, L.V., & Pechinkina, O.V. (2015). Sovremennoye pedagogicheskoye obrazovaniye v Finlyandii i Shvetsii: struktura i sodержaniye. *Vestnik Severnogo (Arkticheskogo) federal'nogo universiteta. Seriya: Gumanitarnyye i sotsial'nyye nauki*, 3, 149–157.
16. Pulkkinen, L. (2005). The organization of a school day in Finland and the concept of the “Integrated School Day” in the MUKAVA project. In E.Klieme & F.Radisch (Eds.), *Ganztagsangebote in der Schule: Internationale Erfahrungen und empirische Forschungen* (Vol. 12, pp. 41–69). Berlin: Bundesministerium für Bildung und Forschung.
17. Qo'ysinov, O. (2024). Yangi O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikning ahamiyati. *Scientific Materials of Nordic*, 1(1).
18. Rabbanaqulov, X. (2022). O'zbekiston va Finlyandiya ta'lim tizimi xususiyatlari. *Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar*, 5(2), 17–23.
19. Saidrasulova, M. (2022-yil 28-oktabr). So'nggi vaqtlarda og'izdan tushmayotgan Finlyandiya ta'limining muvaffaqiyat siri nimada?. *Gazeta.uz*. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/28/fin-education/>.
20. Stavruk, M.A. (2009). Organizatsionno-pedagogicheskiye usloviya razvitiya akademicheskoy mobil'nosti studentov vo vsem mire. *Vestnik Yuzhno-Ural'skogo sluzhashchego gumanitarno-pedagogicheskogo universiteta*, 10(2), 169–176.
21. Svechkarov, V.G., Kozlov, R.S., Ashkhamakhov, K.I., & Ivashchenko, T.A. (2017). Sovremennyye problemy obucheniya, vospitaniya, obrazovaniya. *Nauchnyye izvestiya*, 6, 74–80.
22. Universiteti. (19 dekabr 2024 goda). *InfoFinland.fi*. <https://www.infofinland.fi/ru/education/universities>.
23. V Finlyandii gotovyat k zhizni, a ne k ekzamenam. (n.d.). *Abroadz.com*. <https://abroadz.com/v-finlyandii-gotovyat-k-zhizni-a-ne-k-ekzamenam>.
24. Vankhemping, E., Oksala, R., & Kaarniyemi, P. (2018). Sotsial'nyye aspekty i perspektivy reformirovaniya finansovogo shkol'nogo obrazovaniya. *Nepreryvnoye obrazovaniye: XXI vek*, 4(24), 84–96.
25. von Lehn, B. (2003, März 8). Was Deutschland von Finnland lernen kann. *Die Welt*, 14.
26. Xashimov, Sh.J. (2024). O'zbekistonning xalqaro imijining yuksalishida ta'lim turizmining tutgan o'rni va ahamiyati. *Ustozlar uchun*, 57(4), 237–241.
27. Zagvozdkin, V. (2006). Sekret finskogo uspekha. *Narodnoye obrazovaniye*, 4, 213–220.
28. Zelenin, A.V. (2015). Finskoye obrazovaniye na puti k perelomu: k chemu prishli i dvigat'sya dal'she?. *Munitsipal'noye obrazovaniye: innovatsii i eksperiment*, 5, 71–77.
29. O'quvchi va o'qituvchi orzusi: Finlyandiya ta'lim tizimi. (2018-yil 13-avgust). *Kun.uz*. <https://kun.uz/72076367?ysclid=m2sxtk2hbu243301800>.
30. Shirshova, I.A. (2014). Podgotovka sovremennogo uchitelya: opyt raboty v sfere pedagogicheskogo obrazovaniya. *Uchenyye zapiski Krymskogo federal'nogo universiteta imeni V.I. Vernadskogo. Sotsiologiya. Pedagogika. Psixologiya*, 27(66)(4), 26–35.

REFERENCES

1. Law of the Republic of Uzbekistan No. LRU-637. (2020, September 23). On education. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. Law of the Republic of Uzbekistan No. LRU-595. (2019, December 16). On preschool education and care. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-4646908>.
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-5712. (2019, April 29). On approval of the concept for development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-4312785>.
4. Balchyunene, N. I. (2014). Brief review of scientists' works in the field of Finnish education assessment. *Perspectives of Science*, 2(53), 40–43.
5. Daminov, Kh., & Kosimova, Z. (2020, November 16). What is the important principle of Finnish education policy or the success of Finnish schools?. *Uza.uz*. <https://uza.uz/oz/posts/finlyandiya-talim-siyosatining-muhim-tamoyili-yoxud-fin-maktablarining-muvaffaqiyati->

- nimada-785751.
6. Dubakov, A.V., Olar, Y.V., & Kuzmenkina, Y.V. (2021). Education in Finland: The phenomenon of success. *World of Science. Pedagogy and Psychology*, 9(2).
 7. Education in Finland. (n.d.). *UniPage.net*. https://www.unipage.net/ru/education_finland.
 8. Eriksson, S. (2021, July 8). Student-centered learning: Based on the Finnish education system. *Forbes Education*. <https://education.forbes.ru/authors/obuchenie-orientirovannoe-na-uchenika>.
 9. Erkaeva, G.P. (2023, May 31). Foreign experiences in human capital development. In *Proceedings of the Republican Scientific-Practical Conference "Prospects for National Economic Reform and Sustainable Development"* (pp. 324–327). Tashkent: Tashkent State University of Economics.
 10. Gracheva, A.G. (2016). Interdisciplinary learning in Finnish school. *Modern Scientific Research and Innovation*, 2(58), 785–788.
 11. How teachers are trained in Finland. (n.d.). *Accreditation in Education*. https://akvobr.ru/kak_gotovjat_uchitelei_v_finlandii.html.
 12. In Finland, they prepare for life, not for exams. (n.d.). *Abroadz.com*. <https://abroadz.com/v-finlyandii-gotovyat-k-zhizni-a-ne-k-ekzamenam>.
 13. Jauhiainen, K. (2004). Learning to learn in Finnish “holistically learning community schools”. In Federal Ministry of Education and Research (Ed.), *Start Conference on the Investment Program Future Education and Care: Educational Reform* (Vol. 5, pp. 137–143). Berlin: Federal Ministry of Education and Research.
 14. Khashimov, Sh.J. (2024). The role and importance of educational tourism in enhancing the international image of Uzbekistan. *For Teachers*, 57(4), 237–241.
 15. Koysinov, O. (2024). The importance of continuity in the continuous education system of New Uzbekistan. *Scientific Materials of Nordic*, 1(1).
 16. Kurbonova, G.U., Abduhamidova, M., & Ravshanova, F. (2023). Introduction of Finnish experience into the education system. *Journal of New Century Innovations*, 25(1), 155–159.
 17. Laukia, J. (2010). Professional training of teachers in the field of energy. *Education and Science*, 8, 99–112.
 18. Orlova, L.V., & Pechinkina, O.V. (2015). Modern pedagogical education in Finland and Sweden: Structure and content. *Bulletin of Northern (Arctic) Federal University. Series: Humanities and Social Sciences*, 3, 149–157.
 19. Pulkkinen, L. (2005). The organization of a school day in Finland and the concept of the “Integrated School Day” in the MUKAVA project. In E.Klieme & F.Radisch (Eds.), *All-day Programs in School: International Experiences and Empirical Research* (Vol. 12, pp. 41–69). Berlin: Federal Ministry of Education and Research.
 20. Rabbanakulov, Kh. (2022). Features of education systems in Uzbekistan and Finland. *Innovations in Pedagogy and Psychology*, 5(2), 17–23.
 21. Saidrasulova, M. (2022, October 28). What is the secret of success of the Finnish education that has been on everyone's lips recently?. *Gazeta.uz*. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/28/fin-education/>.
 22. Shirshova, I.A. (2014). Training of a modern teacher: Experience in pedagogical education. *Scientific Notes of V.I. Vernadsky Crimean Federal University. Sociology. Pedagogy. Psychology*, 27(66)(4), 26–35.
 23. Stavruk, M.A. (2009). Organizational and pedagogical conditions for the development of academic mobility of students worldwide. *Bulletin of South Ural State Humanitarian Pedagogical University*, 10(2), 169–176.
 24. Student and teacher's dream: Finnish education system. (2018, August 13). *Kun.uz*. <https://kun.uz/72076367?ysclid=m2sxtk2hbu243301800>.
 25. Svechkarev, V.G., Kozlov, R.S., Ashkhamakhov, K.I., & Ivashchenko, T.A. (2017). Modern problems of teaching, upbringing, education. *Scientific Proceedings*, 6, 74–80.
 26. Universities. (2023, December 19). *InfoFinland.fi*. <https://www.infofinland.fi/ru/education/>

universities.

27. Vanhemping, E., Oksala, R., & Kaarniemi, P. (2018). Social aspects and prospects for reforming Finnish school education. *Lifelong Learning: 21st Century*, 4(24), 84–96.
28. von Lehn, B. (2003, March 8). What Germany can learn from Finland. *The World*, 14.
29. Zagvozdkin, V. (2006). The secret of Finnish success. *Public Education*, 4, 213–220.
30. Zelenin, A.V. (2015). Finnish education on the way to a turning point: What have we achieved and where to move further?. *Municipal Education: Innovation and Experiment*, 5, 71–77.